



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

No6
MAXSUS SON



BAKALAVR TALABALARINIG MAQOLALARI TO'PLAMI



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Elektron nashr. 187 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil mayda ruxsat etildi.

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayeich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Viktorovna, Candidate of Economic Sciences (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 28-fevraldagi
333/5-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Strategies for achieving sustainable growth through green economy transition.....	14
Umida Kakhramonova Gayratovna, Tillayev Khurshidjon Sulaymon oglu	
Current state and development prospects of tourism: comparative analysis and Uzbekistan's experience.....	20
Risolatbonu Shakhzodova, Laziza Khalilova, Nabijonov Biloliddin, Aziza Usmanova	
Инновационные подходы к повышению эффективности корпоративного управления.....	26
Тлеумуратова Мадинабону Дилмурат кизи, Уринов Бабур Насиллоевич	
Startup проекты и их реализация	30
Ёдгорова Мухайе Шухратовна, Иминова Наргиза Акрамовна	
Methodology of Teaching English: Traditional and Modern Approaches	34
Ravshanova Ziyoda Qahramon Qizi, Xoliqova Dilafruz Shuhratovna	
Государственный кредит и государственный долг.....	37
Срождиддинова З.Х., Тухтасинова Д.Н.	
Сравнительный анализ реформ государственных финансов в Китае и Грузии: уроки для Узбекистана	42
Срождиддинова Зарина Хайриддиновна, Шарифзода Мубина Дилмуроджон кизи	
Korxonalarda asosiy vositalar hisobini yuritishni takomillashtirish	49
Shakarov Shahzod Sobir o'g'li, Po'latov Xudoyberdi Uktamovich, Esanov Oybek Madatovich	
Sustainable consumption and production: economic challenges and solutions.....	55
Abdullayev Abdug'ofur, Abdubaxromov Abduazim, Eshniyozov Ozodbek, Azizbek Abdullayev	
Traffic congestion in Uzbekistan: causes and strategic solutions	60
Abdulloh Qodirov, Imron Egamberdiyev, Isomiddin Ravshanov, Munisa Bekmirzayeva	
The relationship between corruption and economic growth.....	64
Jurayev Jo'rabek, Abdullayeva Aziza, Mamatova Sarvinoz, Maha Ibrahim	
Crisis management in the tourism industry	74
Ikromova Munisa, Bahodirova Mohigul, Xalimova Dilbar, Abdullajonova Muslimabonu	
Impact of the touristic indicators on the poverty rate.....	80
Abdumanova Maftuna, Azizova Ruhshona, Shavkatova Mubiyabonu, Durdona Bahodirova	
Bringing sustainability: the role of the green economy in enhancing resource efficiency	91
Salokhiddinova Farangiz, Mardonov MuhammadYusuf, Shovkiyeva Munisa, Ahmadova Xurshida	
The relationship between innovation and environmental emissions.....	98
Mamadiyeva Ruxshona, Nurullayev Asliddin, Abduraimov Sardor Anvar o'g'li, Aysayeva E'zoza	
Green finance unlocked: innovations, challenges in Uzbekistan's perspectives.....	107
Dildora Khodjaeva Mukhamedkhodjaevna, Jamolova Madina Talgatovna, Lola Qidiralieva Ulug'bekovna	
Turning the tide: how Uzbekistan can tackle its water crisis	115
Rixsiboyev Mirhaydar, Orazov Kamron, Baratov Shakhriyor, Bahromjon Urmanov	
Drivers and losses of economic development of Tashkent: a desk study.....	125
Zaribbaeva Komila Ulugbek qizi, Durdona Davletova	
The digital economy in Uzbekistan: challenges and opportunities.....	133
Ro'zmatov Asror, Bo'riyev Javohir, Safarov Habibullo, Mubina Toirova	
Analysis of water consumption in Uzbekistan	139
Rayimjonova Gulsora, Sarvinoz Murodova, Yahyoyeva Nurhayo, Durdona Zaynutdinova	



Global leadership and cross-cultural management: an empirical analysis of intercultural communication competence (icc) in uzbekistan	144
Dr. Eka Surchman, ST, MT, Annisa ciptagustia, SE, M.SI, Abdurakhmanova Iroda Gulmurod qizi	
iqtisodiy masalalarni matritsa nazariyasi asosida modellashtirish va python dasturlash tilida yechish	154
Tojiyev Ilhom Ibraimovich, To'rayeva Feruza Dilmurodovna, Namozova Barchinoy G'ayrat qizi, Baxronova Zuhra Otaniyoz qizi	
Raqamli to'lov tizimlarining naqd pulsiz iqtisodiyotga o'tishdagi o'rni	167
Jo'rabekova Xumora Muzaffar qizi, Saidov Rasul Boltabayevich	
Рост зеленой экономики во всем мире	172
Баймурадова Зилола Алишеровна, Бобуржон Бахриддинович Избосаров	
Raqamli iqtisodiyotda soliq boshqaruvining transformatsiyasi: soliq tizimining avtomatlashtirilishi samarasi	181
Xodjamov Asliddin O'ktam o'g'li, Maqsudov Bunyod Abdusamat o'g'li	



RAQAMLI IQTISODIYOTDA SOLIQ BOSHQARUVINING TRANSFORMATSIYASI: SOLIQ TIZIMINING AVTOMATLASHTIRILISHI SAMARASI



Xodjamov Asliddin O'ktam o'g'li
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Iqtisodiyot fakulteti 3-bosqich talabasi
E-mail: aslxodjamov@gmail.com

Ilmiy rahbar:
Maqsudov Bunyod Abdusamat o'g'li
Iqtisodiyot fanlari falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida soliq boshqaruvi tizimining transformatsiyalanishi va soliq yig'imlarini avtomatlashtirish jarayonining iqtisodiy samaradorligi tahlil qilinadi. Soliq organlarining raqamli texnologiyalarni joriy etishi byudjet tushumlarining oshishiga, yashirin iqtisodiyot hajmining kamayishiga va soliq intizomini mustahkamlashga qanday ta'sir qilayotgani o'rganiladi. Shuningdek, O'zbekiston tajribasi asosida avtomatlashtirilgan soliq nazoratining afzalliklari va muammolari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: raqamli iqtisodiyot, soliq boshqaruvi, avtomatlashtirish, soliq tizimi, iqtisodiy samaradorlik, raqamli transformatsiya.

Abstract: This article analyzes the transformation of the tax administration system and the economic efficiency of the process of automating tax collections in the digital economy. It examines how the introduction of digital technologies by tax authorities affects the increase in budget revenues, the reduction of the size of the shadow economy, and the strengthening of tax discipline. It also examines the advantages and problems of automated tax control based on the experience of Uzbekistan.

Key words: digital economy, tax administration, automation, tax system, economic efficiency, digital transformation.

Аннотация: В данной статье рассматривается трансформация системы налогового администрирования в условиях цифровой экономики и анализируется экономическая эффективность автоматизации процессов сбора налогов. Особое внимание уделяется внедрению цифровых технологий в деятельность налоговых органов, их влиянию на рост бюджетных поступлений, снижение теневой экономики и укрепление налоговой дисциплины. Также на примере Узбекистана исследуются преимущества и проблемы автоматизированного налогового контроля.

Ключевые слова: цифровая экономика, налоговое администрирование, автоматизация, налоговая система, экономическая эффективность, цифровая трансформация.

KIRISH

Bugungi globallashuv va texnologik taraqqiyot sharoitida iqtisodiyotning barcha sohalarida raqamlashtirish jarayonlari jadallashmoqda. Ayniqsa, davlat moliyasini boshqarish va soliq tizimini takomillashtirishda raqamli texnologiyalarning roli ortib bormoqda. Raqamli iqtisodiyot sharoitida davlat va xususiy sektor o'rtasidagi munosabatlar yangi bosqichga o'tmoqda. Ayniqsa, soliq boshqaruvi tizimining transformatsiyasi zamonaviy boshqaruv uslublari bilan uzviy bog'liqdir.



Soliq tizimining avtomatlashtirilishi, ya'ni sun'iy intellekt, ma'lumotlar analitikasi va raqamli platformalarning joriy etilishi, nafaqat byurokratik to'siqlarni kamaytiradi, balki soliq tushumlarini oshirishda ham muhim rol o'ynaydi. Avtomatlashtirilgan tizimlar orqali soliq to'lovchilarning real vaqt rejimida nazorat qilinishi, yashirin iqtisodiyot hajmining kamayishiga olib keladi. Bu esa fiskal intizomning kuchayishiga va soliq siyosatining shaffoflashuviga xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Xalqaro tajribada, xususan Estoniya, Janubiy Koreya va Singapur kabi mamlakatlar soliq tizimini raqamlashtirish orqali yuqori samaradorlikka erishgan. O'zbekiston ham ushbu yo'nalishda faol islohotlarni amalga oshirib, "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida soliq tizimini to'liq avtomatlashtirishga intilmoqda [1].

Davlat soliq qo'mitasi tomonidan joriy etilgan "E-ijro", "My.soliq.uz" platformalari, QR-kod orqali cheklar tizimi va onlayn nazorat-kassa mashinalari bunga yaqqol misoldir.[7]

Mazkur avtomatlashtirish jarayonlari nafaqat soliq yig'imining ortishiga, balki korxonalarning hisob yuritish madaniyatini oshirishga ham xizmat qilmoqda. Raqamli nazorat vositalari yordamida soliqlarning o'z vaqtida va to'g'ri to'lanishini ta'minlash imkoniyati oshmoqda. Bundan tashqari, avtomatlashtirilgan tizimlar soliq xodimlari bilan fuqarolar o'rtasidagi bevosita aloqalarni qisqartiradi va korrupsiya xavfini kamaytiradi.

"Fiscal Policy and Digital Taxation in Uzbekistan" ilmiy tadqiqotda O'zbekistonda soliq siyosatining raqamli texnologiyalar bilan uyg'unligi o'rganilgan. Xorijiy davlatlar tajribasi bilan taqqosiy tahlil keltirilgan. Tavsiya sifatida zamonaviy soliq boshqaruvi uslublari taklif qilingan[3]

Soliq boshqaruvining transformatsiyasi — bu oddiy texnik o'zgarish emas, balki muhim institutsional islohotdir. Mazkur transformatsiya orqali davlat iqtisodiy siyosatining asosiy ustunlaridan biri bo'lgan byudjet barqarorligiga erishish osonlashadi [6].

Shuningdek, soliq to'lovchilarning ishonchini oshirish, ularning ijtimoiy mas'uliyatini shakllantirish va soliq intizomini mustahkamlash imkonini beradi. "Soliq va Bojxona Jurnal" (2024) – Maxsus son: "Raqamli transformatsiya va soliq boshqaruvi: milliy tajriba va istiqbollar" ning maxsus sonida O'zbekistonda olib borilayotgan raqamli soliq islohotlariga bag'ishlangan. Mualliflar avtomatlashtirish natijasida yuzaga kelgan samaradorlik ko'rsatkichlarini ochib bergan. Yangi qonunchilik asoslari va texnologik yechimlar keng tahlil qilingan[8].

Shu jihatdan olib qaralganda, raqamli iqtisodiyot sharoitida soliq boshqaruvining transformatsiyasi dolzarb masala hisoblanadi. Ushbu maqolada soliq tizimining avtomatlashtirilishi jarayonining mazmuni, joriy etilayotgan texnologiyalar va ularning iqtisodiy samarasi tahlil qilinadi. Bundan tashqari, O'zbekiston tajribasi xalqaro tajribalar bilan solishtirilib, mavjud muammo va takliflar muhokama etiladi. Maqolaning asosiy maqsadi — soliq tizimining raqamlashtirilishi orqali iqtisodiy samaradorlik va fiskal barqarorlikni ta'minlash mexanizmlarini aniqlashdir.

Jahon banki "Digital Economy Diagnostic Report: Uzbekistan" hisobotda O'zbekistonning raqamli infratuzilmasi holati va imkoniyatlari chuqur tahlil qilingan. Soliq tizimini raqamlashtirish bo'yicha tavsiyalar berilgan. Hisobotda fiskal ma'lumotlar tahlili va elektron boshqaruv asoslari yoritilgan [4].

DSQ (2023) – "O'zbekistonda soliq nazoratining raqamlashtirilishi" milliy sharhida respublika miqyosida amalga oshirilayotgan raqamli islohotlar haqida batafsil ma'lumot beriladi. Avtomatlashtirish orqali soliq tekshiruvlari soni qisqartirilgani qayd etilgan. Soliq to'lovchilarning ishonchi ortgani ta'kidlangan.[5]

My.soliq.uz portali 2020-yillarning boshlarida O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan joriy etildi. Portalning asosiy maqsadi – soliq to'lovchilar va soliq organlari o'rtasida o'zaro munosabatlarni raqamli shaklga o'tkazish, ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash edi. Avvalambor, yuridik va jismoniy shaxslar o'zlarining soliq hisobotlarini elektron tarzda topshirish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Bu esa soliq ma'muriyatchiligi yukini kamaytirish va inson omiliga bog'liq xatoliklarni qisqartirishga xizmat qildi. Portal orqali QR-kodli onlayn kassa mashinalari, soliq qarzlari haqida ma'lumotlar, elektron imzo asosida shaxsiy kabinetga kirish kabi xizmatlar taqdim etilmoqda. Bundan tashqari, my.soliq.uz tizimi orqali soliq to'lovchilar o'z faoliyatlarini ro'yxatdan o'tkazish, yangilash yoki yopish amallarini ham masofadan turib bajarish imkoniga ega. Ushbu portalning joriy etilishi O'zbekistonda soliq boshqaruvi tizimining raqamli transformatsiyasi yo'lida muhim qadam bo'ldi.[2]


TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda ilmiy tahlil va induktiv-deduktiv yondashuvlar asosida nazariy va amaliy materiallar o'rganildi. Ma'lumotlar tahlili uchun statistik guruhlash, taqqoslash hamda grafik usullardan foydalanildi. Asosiy ma'lumotlar O'zbekiston va xorijiy mamlakatlar tajribasiga oid rasmiy hisobotlar, maqolalar va ochiq manbalar orqali yig'ildi. Tadqiqotning empirik qismi sifatida mavzuga oid raqamli ko'rsatkichlar tahlili amalga oshirildi.



TAHLIL VA NATIJALAR

2025-yilning fevral-iyun oylaridagi “Soliq to'lovchining shaxsiy kabineti”dan foydalanganlar soni bo'yicha taqdim etilgan statistik diagramma asosida amalga oshirilgan tahlilga ko'ra, ushbu raqamli xizmatdan foydalanish ko'rsatkichlarida ma'lum davr mobaynida sezilarli o'zgarishlar sodir bo'lgan. Fevral oyida eng yuqori ko'rsatkich – 431 085 foydalanuvchi qayd etilgan bo'lib, bu yil boshidagi faol foydalanuvchilik darajasining yuqoriligi va xizmatga bo'lgan talabning kuchli ekanligini anglatadi (1-rasm).



1-rasm. My.soliq.uz elektron soliq xizmatlari portalining 2025-yilning fevral-iyun oyidagi soliq to'lovchilarning shaxsiy kabinetdan foydalanish statistikasi

Mart oyida bu ko'rsatkich 406 517 nafarga tushib, 24 568 kishilik yoki 5.7 foizlik pasayishni tashkil qilgan. Bu holat mavsumiylik, foydalanuvchilarning yillik soliq hisobotlariga tayyorlanish bosqichi ortda qolganligi yoki texnik omillar bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Aprel oyida esa 410 974 nafar foydalanuvchi bilan qayta o'sish kuzatilib, 1.1 foizlik kichik tiklanish yuz bergan. Bu davrda ba'zi yangi qulayliklar, foydalanuvchi interfeysidagi soddalashtirishlar yoki xizmatlar ro'yxatining kengaytirilgani foydalanuvchi faolligini biroz oshirgan bo'lishi mumkin.

May oyida esa foydalanuvchilar soni 360 236 nafarga tushib, 50 738 kishilik (12.3 foizlik) pasayish kuzatilgan. Bu esa xizmatdan foydalanishga nisbatan qiziqish pasayganligini yoki foydalanuvchilarning ehtiyojlari vaqtincha kamayganligini ko'rsatadi.

Biroq eng katta pasayish iyun oyida ro'y bergan – atigi 159 580 nafar foydalanuvchi xizmatdan foydalangan bo'lib, bu may oyiga nisbatan 200 656 kishilik, ya'ni 55.7 foizlik keskin kamayishni anglatadi. Bunday pasayish holati ko'p jihatdan foydalanuvchilarning yozgi ta'tillar, mavsumiy ish yuklamasining pasayishi, tizimdan xabardorlik darajasining pasayishi yoki xizmatda yuzaga kelgan texnik noqulayliklar bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Lekin shuni inobatga ham olish kerakki ya'ni hali iyun oyi nihoyasiga yetgani yoq. Bu bilan erta xulosa chiqarmaslik lozim.

Bundan tashqari, foydalanuvchilarga ko'rsatilayotgan xizmatlar sifati, ularning interaktivligi yoki mijozga yo'naltirilganligi yetarli darajada bo'lmasligi ham bunday keskin pasayishga sabab bo'lishi mumkin. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, dastlabki uch oyda – fevraldan aprelgacha bo'lgan davrda xizmatdan foydalanish darajasi deyarli barqaror saqlanib turgan, bu esa foydalanuvchilar orasida xizmatning dolzarbligi, funksional imkoniyatlari va zarurati yuqori darajada bo'lganini ko'rsatadi. Xususan, bu davrda ko'plab yuridik va jismoniy shaxslar yillik soliq hisobotlarini topshirish, to'lovlarni amalga oshirish, hisob-kitoblarni tekshirish, elektron arizalarni yuborish kabi faol amaliyotlarni amalga oshiradi.

Ushbu xizmatlar foydalanuvchilar uchun qulay raqamli muhitni ta'minlagani tufayli mart va aprel oylarida nisbatan barqaror ko'rsatkichlar qayd etilgan. Ammo may va iyun oylarida kuzatilgan keskin pasayishlar bu jarayonni tahlil qilish, xizmatning o'ziga xos zaif jihatlarini aniqlash, foydalanuvchilarning qoniqish darajasini o'rganish va zarur holatlarda texnik, marketing yoki xizmat ko'rsatish jihatidan modernizatsiya qilish zarurligini ko'rsatadi.

Umumiy hisobda, fevraldan iyungacha bo'lgan davrda o'rtacha foydalanuvchilar soni 353 278 nafarni tashkil etgan. Bu ko'rsatkich bir qarashda yuksak raqamdek ko'rinsa-da, oylar kesimidagi tafovutlar xizmat samaradorligining vaqt davomida to'g'ri boshqarilmasligi yoki foydalanuvchi ehtiyojlarining barqaror tahlil qilinmasligi natijasi bo'lishi mumkin.

Mazkur xizmatdan foydalanuvchilar sonining kamayib borayotganligi soliq boshqaruvida raqamli xizmatlarni samarali takomillashtirish, foydalanuvchilarga xizmat ko'rsatish tezligi va qulayligini oshirish, shuningdek,



foydalanuvchilarning malakasini oshirish, ularga yo'riqnoma va video qo'llanmalarni keng targ'ib qilish kabi chora-tadbirlarni amalga oshirishni taqozo etadi. Bundan tashqari, foydalanuvchilar bilan muntazam muloqotda bo'lish, ularning fikr-mulohazalarini tizimli o'rganish, soliq xizmatlarini ko'proq interaktiv va avtomatlashtirilgan shaklga o'tkazish orqali foydalanuvchilar sonini barqaror ushlab turish hamda bosqichma-bosqich oshirish mumkin. Demak, 2025-yilning birinchi yarmidagi statistik holat soliq tizimi raqamlashtirilishining natijalarini ko'rsatish barobarida, bu jarayonni yanada chuqurlashtirish va takomillashtirish borasida yangi vazifalarni ham ilgari suradi.

1-jadval. O'zbekistonda soliq tizimini raqamlashtirish samaradorligi (2020-2023)

Ko'rsatkichlar	2020-yil	2021-yil	2022-iyul	2023-yil
Elektron soliq xizmatlaridan foydalanuvchilar	380 000	490 000	575 000	65 000
Soliq tushumlari(trln so'm)	80	96	110	125
Yashirin daromadlar ulushi(%)	27	21	16	11
Onlayn nazorat-kassa mashinalari soni	45 000	89 000	121 000	140 000
"Soliq to'lovchi kabineti" dan mamnunlar(%)	68	75	82	87

2020–2023-yillar davomida O'zbekistonda soliq tizimini raqamlashtirish samaradorligiga oid ko'rsatkichlar tahlili mamlakatda olib borilayotgan raqamli islohotlarning ijobiy natijalarini yaqqol aks ettiradi. Avvalo, elektron soliq xizmatlaridan foydalanuvchilar sonining o'zgarishiga e'tibor qaratilsa, 2020-yilda bu ko'rsatkich 380 000 nafar bo'lgan bo'lsa, 2021-yilda 490 000 nafarga yetib, 110 000 kishilik (29 foiz atrofida) o'sish qayd etilgan. 2022-yilning iyul holatiga ko'ra esa foydalanuvchilar soni 575 000 nafarga yetib, oldingi yilga nisbatan yana 85 000 kishilik o'sish kuzatilgan. Bu holat fuqarolar orasida raqamli xizmatlarga bo'lgan ishonchning oshib borayotganini, ularning soliq tizimiga integratsiyalashuvining kuchayganini ko'rsatadi. Biroq 2023-yilda bu ko'rsatkich 65 000 nafar deb berilgan, bu esa aniq chalkashlik yoki ehtimol, boshqa uslubiy yondashuv asosida keltirilgan bo'lishi mumkin, chunki bu ko'rsatkich avvalgi yillardan sezilarli darajada past.

Agar bu raqam yillik emas, balki biror davr mobaynida qayd etilgan bo'lsa, demak bu davrdagi foydalanuvchilar sonida pasayish kuzatilgan, bu esa foydalanuvchilarning faolligiga salbiy ta'sir etgan omillarni chuqur tahlil qilishni talab etadi. Soliq tushumlarining o'sish dinamikasiga e'tibor qaratilsa, 2020-yilda 80 trillion so'm bo'lgan tushumlar 2021-yilda 96 trillion so'mga yetgan, ya'ni 16 trillion so'mlik (20 foizlik) o'sish kuzatilgan. 2022-yilga kelib tushumlar 110 trillion so'mni tashkil etgan bo'lib, bu esa yana 14 trillion so'mlik (14.6 foizlik) ortishni anglatadi. 2023-yilda soliq tushumlari 125 trillion so'mga yetgan bo'lib, bu 2022-yilga nisbatan 15 trillion so'mga (13.6 foiz) oshgan. Ushbu raqamlar soliq tizimining raqamlashtirilishi natijasida budget tushumlarining barqaror va bosqichma-bosqich ortib borayotganini ko'rsatadi. Bu o'z navbatida, fiskal intizomning kuchaygani, yashirin iqtisodiyotning qisqargani, onlayn nazorat mexanizmlarining joriy etilgani va fuqarolarning soliq majburiyatlariga bo'lgan munosabatining ijobiy tomonga o'zgargani bilan bog'liq.

Yashirin daromadlar ulushining kamayish dinamikasi ham yuqoridagi fikrlarni tasdiqlaydi. 2020-yilda bu ko'rsatkich 27 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 2021-yilda 21 foizga tushgan (6 foizga kamayish), 2022-yilda 16 foiz (5 foizga kamayish), 2023-yilda esa atigi 11 foiz bo'lib, yana 5 foizlik pasayish yuz bergan. Umumiy hisobda, 2020–2023-yillar orasida yashirin iqtisodiyotdagi ulush 16 foizga kamaygan. Bu — soliq organlarining raqamli nazorat, onlayn hisobotlar, avtomatik ma'lumot almashinuvi, elektron hisob-kitoblar va sun'iy intellekt asosidagi monitoring tizimlarini joriy etish orqali erishilgan muhim yutuqdir.

Yashirin daromadlar qisqargani soliq bazasining kengayishiga, adolatli raqobat muhitining shakllanishiga va budget barqarorligining ta'minlanishiga xizmat qiladi. Onlayn nazorat-kassa mashinalari (ONKM) sonining o'sishi ham soliq boshqaruvining zamonaviylashuv darajasini ko'rsatadi. 2020-yilda bu mashinalar soni 45 000 tani tashkil etgan bo'lsa, 2021-yilda 89 000 taga yetgan (ya'ni ikki barobarga yaqin o'sish), 2022-yilda 121 000



taga, 2023-yilda esa 140 000 taga yetgan. Ushbu ko'rsatkichlar, ayniqsa chakana savdo va xizmat ko'rsatish sohasida onlayn hisob-kitoblarni rasmiylashtirish va soliqqa tortishning oshganini bildiradi.

ONKM orqali amalga oshirilgan tranzaksiyalar real vaqt rejimida nazorat qilinadi, bu esa yashirin aylanmalarni aniqlash, to'g'ri soliq solish bazasini shakllantirish va noqonuniy faoliyatlarining oldini olishda katta ahamiyatga ega. "Soliq to'lovchi kabineti"dan foydalanuvchi fuqarolarning ushbu xizmatdan qoniqish darajasi ham doimiy ravishda oshib borgan. 2020-yilda 68 foiz foydalanuvchi xizmatdan mamnun bo'lgan bo'lsa, 2021-yilda bu ko'rsatkich 75 foizga, 2022-yilda 82 foizga, 2023-yilda esa 87 foizga yetgan. Bu o'sish soliq xizmatlari foydalanuvchi ehtiyojlari va kutgan natijalariga mos tarzda shakllantirilayotganini ko'rsatadi. Foydalanuvchilar sonining ortib borishi, shuningdek, ularning xizmatdan mamnunligi raqamlashtirilgan xizmatlarning qulayligi, interfeyslarning soddaligi, tezkorligi va shaffofligi natijasidir.

Xulosa qilib aytganda, 2020–2023-yillar oralig'ida O'zbekistonda soliq tizimini raqamlashtirish bo'yicha amalga oshirilgan islohotlar sezilarli natijalar bergan. Elektron xizmatlardan foydalanish ko'rsatkichlarining oshishi, soliq tushumlarining yildan-yilga ortib borishi, yashirin iqtisodiyot ulushining kamayishi, onlayn nazorat-kassa mashinalarining ko'payishi va foydalanuvchilarning mamnunlik darajasining yuksalishi bularning amaliy ifodasidir. Bunday ijobiy tendensiyalarni saqlab qolish va yanada rivojlantirish uchun ilg'or texnologiyalarni joriy etishda davom etish, sun'iy intellekt va katta ma'lumotlar (Big Data) imkoniyatlaridan foydalanish, shuningdek, foydalanuvchilarning raqamli savodxonligini oshirish maqsadida doimiy o'quv va axborot kampaniyalarini tashkil etish dolzarb hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, raqamli iqtisodiyotning shakllanishi va jadal rivojlanishi soliq boshqaruvi tizimini zamonaviy texnologiyalar asosida tubdan transformatsiya qilishni talab etmoqda. Bugungi kunda soliq boshqaruvida avtomatlashtirish jarayonlari nafaqat operatsion samaradorlikni oshirish, balki fuqarolar bilan davlat o'rtasidagi munosabatlarni yanada shaffof, ishonchli va interaktiv tarzda tashkil etish imkonini bermoqda. O'zbekistonda oxirgi yillarda amalga oshirilgan raqamli islohotlar ayniqsa soliq sohasida o'zining ijobiy natijalarini ko'rsata boshladi. Soliq organlari tomonidan elektron xizmatlarning joriy etilishi, onlayn nazorat-kassa mashinalari (ONKM), "Soliq to'lovchi kabineti", "my.soliq.uz" platformalari orqali ko'rsatilayotgan xizmatlar tizimda yirik o'zgarishlarga sabab bo'ldi. Soliq tushumlarining yildan-yilga ortib borishi va yashirin iqtisodiyot ulushining kamayishi bevosita raqamlashtirish samaradorligini isbotlaydi. 2020–2023-yillar oralig'ida soliq tushumlari 80 trln so'mdan 125 trln so'mgacha ortgani, yashirin daromadlar ulushi esa 27 foizdan 11 foizgacha qisqargani bu borada sezilarli o'zgarishlarning borligidan darak beradi. Ayniqsa, onlayn nazorat-kassa mashinalari sonining to'rt yil ichida uch barobarga ko'paygani davlatning barcha darajadagi xo'jalik yurituvchi subyektlar ustidan nazoratini kuchaytirganini bildiradi.

Elektron xizmatlar orqali soliqqa oid operatsiyalarni amalga oshirish fuqarolarga qulaylik yaratdi, ularning huquqiy ongini oshirdi hamda ko'proq fuqarolarni rasmiy soliq muhitiga jalb etdi. "my.soliq.uz" portalining faoliyati nafaqat jismoniy, balki yuridik shaxslar uchun ham soliq majburiyatlarini oson va tez bajarish imkonini bermoqda. Bu platformalar orqali foydalanuvchi sonining har yili ortib borayotganini tahlil qilsak, davlat va fuqarolar o'rtasidagi ishonchli hamkorlik shakllanayotganini ko'rish mumkin. Raqamli xizmatlar fuqarolarning vaqtini tejash, ortiqcha byurokratik to'siqlardan xalos bo'lish va korrupsiya xavfini minimallashtirishga xizmat qilmoqda.

Shuningdek, soliq tizimining avtomatlashtirilishi nafaqat mahalliy darajada, balki xalqaro reytinglarda ham O'zbekistonning pozitsiyalarini yaxshilashga xizmat qilmoqda. Global raqamli transformatsiyalarning fonida mamlakatning raqamli soliq boshqaruvi bo'yicha ilg'or tajribalarga tayangan holda harakat qilayotgani quvonarli holatdir. Biroq mavjud yutuqlar bilan cheklanmasdan, doimiy takomillashtirish va yangiliklarni joriy qilish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda. Ayniqsa, sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar (Big Data) va bulutli texnologiyalarni soliq tizimiga integratsiyalash jarayoni tezlashtirilishi lozim. Fuqarolar va tadbirkorlar o'rtasida raqamli savodxonlikni oshirish ham transformatsiyaning asosiy shartlaridan biridir. Shuningdek, soliq siyosatini optimallashtirish va soliq yukini adolatli taqsimlash orqali ko'proq subyektlarni rasmiy soliq maydoniga jalb etish zarur.

Kelajakda soliq boshqaruvining barcha bo'g'inlarini to'liq raqamlashtirish orqali iqtisodiy samaradorlikka erishish, shaffoflikni kuchaytirish va fuqarolar ishonchini yanada mustahkamlash mumkin bo'ladi. Soliq organlari xodimlari uchun raqamli ko'nikmalar bo'yicha muntazam o'quv kurslarini tashkil qilish zarurati ham mavjud. Soliq sohasidagi islohotlarni natijaviy amalga oshirishda xalqaro tajribadan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekistonning raqamli soliq tizimida erishgan yutuqlari, shubhasiz, iqtisodiy o'sishning asosiy drayverlaridan biriga aylanmoqda. Xususan, davlat byudjetining tushum qismi mustahkamlanmoqda, soya iqtisodiyoti qisqarmoqda va soliqqa tortish bazasi kengaymoqda.

Umuman olganda, raqamli iqtisodiyot sharoitida soliq boshqaruvining transformatsiyasi davlat va jamiyat uchun katta imkoniyatlar ochmoqda. Ushbu imkoniyatlardan samarali foydalanish mamlakat iqtisodiyotining



barqaror rivojlanishini ta'minlaydi. Shu bois, soliq tizimining raqamlashtirilishi nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy va ma'muriy sohalarda ham sezilarli yutuqlar sari yo'l ochmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli farmoni – “2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”.
2. My.soliq.uz portali rasmiy sahifasi – <https://my.soliq.uz>
3. *Fiscal Policy and Digital Taxation in Uzbekistan: Comparative Study and Policy Recommendations.* — Toshkent: Iqtisodiy Tadqiqotlar Instituti, 48-bet.
4. Jahon banki. (2021). Digital Economy Diagnostic Report: Uzbekistan. Soliq tizimini raqamlashtirish bo'yicha tahlil va tavsiyalar. <https://documents.worldbank.org>
5. DSQ. (2023). O'zbekistonda soliq nazoratining raqamlashtirilishi. O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan tayyorlangan milliy sharh.
6. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi. (2024). Soliq-budjet siyosatining asosiy yo'nalishlari. Rasmiy axborot nashri.
7. “E-ijro AIO” tizimi faoliyati va uning davlat boshqaruvida raqamlashtirishdagi o'rni. — Toshkent: <https://e-ijro.uz>
8. Soliq va Bojxona Jurnal” (2024). “Raqamli transformatsiya va soliq boshqaruvi: milliy tajriba va istiqbollar”. — Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi nashriyoti.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

6-Maxsus son. Bakalavr talabalarining maqolalari to'plami

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
